

XUSHXABAR

O'ZBEK YOSHLARI

o'z iste'dodi bilan dunyo ahlini yana bir bor lol qoldirdi

Yaqinda Rossiyada dunyoning yigirma ikki mamlakatidan jami 125 nafar iqtidor egasi qatnashgan kimyo fani bo'yicha 50-Xalqaro Mendeleyev olimpiadasida Toshkent pediatriya tibbiyot instituti qoshidagi Yunusobod akademik litseyi o'quvchisi Sarvar Shoyunusov nazariy hamda eksperimental (amaliy) bellashuvlarda iqtidorini namoyish etib, kumush medalga sazovor bo'ldi. Shuningdek, Samarqand davlat tibbiyot instituti qoshidagi 1-akademik litseyda tahsil olayotgan Jahongir Faxriyev va Toshkent tibbiyot akademiyasi qoshidagi akademik litsey o'quvchisi Charos Omonova bronza medalni qo'lga kiritdi.



Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092



**TINCHLIK -
OLIV NE'MAT**
(2-bet)

Ushbu sonda:

**GULLAR
SHAHRIDA
YOSHLAR
BAYRAMI**

2-bet

**BOLALIK
KUNLARIMDA**

3-bet

**«ONAJONIM
TABIAT»**
insholar va
rasmlar tanloviga
marhamat!

6-bet

**MOZIYDAN
SO'ZLOVCHI
MASKANLAR**

8-bet

GULLAR SHAHRIDA YOSHLAR BAYRAMI

Mustaqilligimizning 25 yilligi munosabati bilan Namangan viloyatida bo'lib o'tgan «Biz buyuk yurt farzandlarimiz» shiori ostidagi yoshlar festivali ishtirokchilarga olam-olam zavq bag'ishladi.

BU MENING VATANIM!

Pop tumanidagi 7-umumta'lim maktabida tashkil etilgan uchrashuv «Bu mening Vatanim!» deb nomlandi. Unda tumandagi 8-, 9-, 27-, 35-, 36-hamda 64-umumta'lim maktab o'quvchilari ishtirok etdi.

Uchrashuvda el sevgan san'atkorlar, professor o'qituvchilar, shoir va yozuvchilar so'zga chiqib, bugun yurtimizda amalga oshirilayotgan



Namanganlik o'quvchilar hayotidan lavhalar.

islohotlar, ma'naviy, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy sohalarida erishilayotgan ulkan yutuqlar, bunyodkorlik ishlari, shuningdek, yoshlarga ko'rsatilayotgan yuksak e'tibor xususida to'liqlanib so'zladilar. O'z navbatida, mezbolar yurtimiz yoshlari, jumladan, namanganlik o'quvchilarning sport, san'at, fan sohalarida erishayotgan yutuqlari xususida faxr bilan so'zladilar.

Bu kabi uchrashuvlar viloyatning Chust, Mingbuloq, To'raqo'rg'on, Kosonsoy kabi tumanlarida ham bo'lib o'tdi. Mingbuloq tumanidagi «Biz sog'lom turmush tarzi tarafdorimiz!», Chust shahridagi madaniyat va istirohat bog'ida o'tkazilgan «Vatanim – mening faxrim» singari loyihalarda ham namanganlik yoshlar o'z faolligini yana bir bor namoyish etishdi.

Festival namanganlik yoshlarni yurtga sodiq farzand bo'lishga, mamlakatimiz rivojiga munosib hissa qo'shishga undagan bo'lsa ajabmas.

F. SOYIBJON qizi.

ZUBAYDA olgan suratlar

Poytaxtimizning Uchtepa tumanidagi 312-umumta'lim maktabida «Tinchlik – oliy ne'mat» deb nomlangan anjuman bo'lib o'tdi. Tuman hokimligi bilan hamkorlikda uyushtirilgan ushbu tadbirda Mustaqillik, tinchlik eng aziz ne'mat ekanini, mamlakatimizda olib borilayotgan izchil islohotlar zamirida ana shu ne'matlarni ko'z qorachig'iday asrab-avaylash mas'uliyati mujassamligi, yoshlarimizni ona Vatanga sadoqat va milliy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalashga qaratilayotgan e'tibor haqida so'z yuritildi.

TINCHLIK – OLIY-NE'MAT



N. SULTONOV olgan surat

Maktabning 9-«B» sinf o'quvchisi Mushtariy Husanova barcha o'quvchilar nomidan gapirar ekan, har bir sog'lom farzand borki, o'z hayoti, yurt tinchligi, mamlakat ravnaqiga bevosita bog'liq ekanini his qilib yashaydi. – Yurtimizni ko'z qorachig'imizday asrab-avaylash, yanada gullab yashnatish biz yoshlarning muqaddas burchimizdir, – dedi.

– Mutaxassislar fikricha, xotirjamlik insonning eng muhim ruhiy ehtiyoji bo'lib, shaxs sog'lig'i, jamiyat barqarorligini ta'minlashda katta o'rin tutar ekan. Ming shukurlar bo'lsinki, yurtimiz tinch, hayotimiz farovon. Bunday yorug' kunlarning qadriga yetish har birimizning burchimizdir. Biz ustozlar buni yoshlarga uqtirishdan sira charchamasligimiz kerak, – deydi ushbu muassasaning ma'naviy ishlar bo'yicha rahbar o'rinbosari Feruza Badalova.

Darhaqiqat, ushbu tadbirdan ko'zlangan asosiy maqsad ham o'quvchilarga mamlakatimizdagi tinchlik va osoyishtalikni, millatlararo totuvlikni asrash eng katta vazifalari ekanligini yana bir bor ta'kidlashdan iboratdir.

Jamoliddin ABDULLAYEV

Xotira

DEVORDAGI SURAT

Bolalik paytlarimda buvimning

uylaridagi devorda eski, xiralashgan, ko'ksi har xil medallar bilan to'la bir askarning surati ilinib turardi.

Bir kuni men qiziqib buvijonimdan bu inson kimligini so'radim.

Shunda buvim suratdagi askar otalari, ya'ni mening bobom ekanini aytdilar. Buvam dushmanlarga qarshi mardonavor kurashgan ekanlar.

– Bu urush qancha-qancha mard o'g'lonlarni yostig'ini quritmagan deysan, – deya so'z boshlagandilar buvim. – Sening bobong Rasom Yunusov 1942-yilda yurtimiz tinchligini himoya qilish uchun urush maydoniga o'tlangan. Mardonavor xizmatlari uchun «Jasorat» medali bilan taqdirlanganlar.

Shundan so'ng, har safar bobomning suratlarini ko'rganimda, meni o'zgacha faxr, g'urur tuyg'ulari chulg'ab oladi. Shu bilan birga, bugungi kun qadriga yetishimiz lozimligini angrayman.

Fazilat RAHIMXO'JAYEVA,

Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumanidagi 54-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi



YANGI ISTE'DODLARNI KASHF ETGAN TANLOV

Musiq – qalblarga osoyishtalik baxsh etuvchi, shikasta dillarni davolovchi vosita. Ayniqsa, mumtoz kuy taralganda, ko'ngillar sel bo'ladi. Tabiat uzra ezgulik nafasi ufuradi. Balki shundan bo'lsa kerak, inson hamisha san'atga – musiqaga intilib yashaydi.

Bugungi kunda respublikamizda jahon andozalariga mos keladigan, zamonaviy ko'rinishga ega 400 ta bolalar musiq va san'at maktabi faoliyati yo'lga qo'yilgan bo'lib, mazkur maskanlarda ta'lim olayotgan o'quvchilarning endilikda qator xalqaro tanlovlarda o'z san'atlarini namoyish etib, g'olib va sovrindorlar safidan joy olmoqda. Har yili an'anaviy tarzda o'tkazib kelinayotgan «San'at g'unchalari» ko'rik-tanlovi yangi iste'dodlarni kashf etishda alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston davlat konservatoriyasida damli va zarbli cholg'u asboblari ijrochiligi bo'yicha «San'at g'unchalari» xalqaro tanlovda madaniyat, musiq va san'atga

ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktablari, litsey va kollej o'quvchilaridan iborat 164 nafar san'at ixlosmandlari ishtirok etdi. Yosh sozandalar fleyta, goboy, klarnet, fagot, saksofon, truba, valtorna, trombon, tuba kabi damli va zarbli cholg'u asboblari yo'nalishlari bo'yicha o'z mahoratini namoyish etishdi. Ishtirokchilar nafaqat milliy musiqa, balki jahon bastakorlarining mashhur asarlarini ijro etib, yig'ilganlarni zavqlantirdi. Respublika ixtisoslashtirilgan musiq va san'at akademik litseyi o'quvchisi Shohsanam Xo'janiyozova tanlovning ochilish marosimida Montining «Chardash» kuyini, birinchi bosqichda esa G. Mushelning «Sonatino» kuyini ijro etib, kechaga o'zgacha fayz kiritdi.

Yosh ishtirokchilarning ijrosi soha mutaxassislaridan tarkib topgan hay'at a'zolari tomonidan baholab borildi.

NURBEK

«BOLALIK KUNLARIMDA...»

«Adabiyotning, she'riyatning, san'atning o'z bulbullari bor. Ular orasida sevimli adibimiz Haydar Muhammadning ham borligi kishini quvontiradi».
Mahmud TOIR, O'zbekiston xalq shoiri

Vatan tuyg'usini dilingizga jo aylang



H. HAMIDULLAYEV (ujun surat)

USTOZLAR SABOG'I

Haydar
MUHAMMAD

– shoir, dramaturg,
«Do'stlik» ordeni sohibi.
Yozmasa turolmaydigan,
yozsa charchamaydigan qalam
sohibi. 26 dan ziyod asarlari
asosida sahnalashtirilgan
spektakllar, 22 ta nazmiy asarlari
chop etilgan. El ardog'idagi
ijodkor o'z bolaligi haqida
quyidagi xotiralarni
so'zlab berdi.

Ustozimiz Oysha opaning
portfellarini ko'tarishib,
uylariga kuzatib qo'yishni
juda yoqtirardim. Sobir
Abdulla, Mirtemir,
Oybek, Ibrohim
Rahim, Quddus
Muhammadiy, Said
Ahmadlar bizga yaqin
turishardi, aynan shu adabiy
muhit ijodkorlikni tanlashimda muhim o'rin tutgan
bo'lsa, ajabmas. 6-sinfda o'qib yurgan vaqtlarimdayoq
xalq dostonlarini oilamizdagilarga o'qib berardim. Bolalik
tasavvurimda «Agar dostonlar tugab qolsa, nima o'qiyman?»,
deb o'ylardim. O'sha yillardan boshlab she'rlar qoralay
boshlaganman. Katta bir daftar to'lgach, uni Mirtemir domlaga ko'rsatish
uchun olib borganman. Ustoz mashqlarim ustida yana ko'proq ishlashimni maslahat
berib, kelajakda yaxshi bir ijodkor bo'lishimga ishonch bildirib, birinchi she'rimga
«oq fотиha» berganlar.

Haydar
MUHAMMADning
«Turnalar» deb
nomlangan birinchi she'ri
gazetamizning 1957-yil
8-oktyabr sonida chop
etilgan.

SINFDOHLAR

– Men 1936-yil poytaxtimizning Ishchilar
shaharchasidagi «Yangiariq» mahallasida
dunyoga kelganman. Otam Muhammadsiddiq
– artel ishchisi, onam Tojixon aya uy bekasi
bo'lganlar. 9 yoshimda Shayxontohur tumanidagi
20-umumta'lim maktabining 1-sinfiga borganman.
O'zbekiston xalq artisti Rixsi Ibrohimova, shifokor
Akrom Fozilov, pedagogika fanlari nomzodi,
dotsent Abdumannon Tojiyevlar bilan bir sinfda
tahsil olganmiz. Bolaligimda yomg'irning
tarnovdan tushishini, osmonda uchayotgan
turnalarni kuzatishni juda yoqtirardim. Uyimiz
yaqinidagi bedapoyada qo'shni bolalar bilan
futbol o'ynardik.

BOLALIK YILLARIM URUSH DAVRIGA TO'G'RI KELGAN

Urush yillari bolalarini «qahramonlar» deb atasa
ham xato bo'lmaydi. Murg'ak tasavvurimiz bilan urush
dahshatlarini idrok eta olmasak ham, muhit bizni
vaqtdan ilgari ulg'aytirib qo'ygan edi. O'sha yillar
haqida:

Gohida ba'zilar qilishar orzu,
Oh, bolaligim qaytsa, deb, qani.
Menda o'zga xayol, o'zgachadir u...
Yo'q, yo'q, bolaligim qaytmasin mani.

Siz ajablanmang, koyimang biroz,
Sho'xliklarni sevmas qanday shoir, deb.
Yo'q, yo'q sho'xliklarga yo'qdir e'tiroz,
Lek bolaligimga berolmayman zeb.

Achchiq, azobli kunlarni eslab,
Yo'q, bolaligim qaytmasin, deyman.
Onalar qora xat ustida yig'lab,
Yosh to'kib marsiya aytmasin, deyman.
Yo'q, yo'q bolaligim qaytmasin, deymani!

deb yozganman.

OLCHANING TUG'ILGAN KUNI

Yoshligimzdagi
qiyinchiliklar bizni tobladi,
sabrlil bo'lishga undadi, orzu-
maqsadlarimiz yo'lida tinmay mehnat
qilishni, bu kunlar o'tkinchi ekanligini
anglashga, ulug' ne'mat bo'lgan hayotni
qadrlashga o'rgatdi.
Birinchi qo'shig'im 1963-yil «So'lim diyor» Jahon
yoshlar festivaliga tayyorgarlik rukni ostida Botir
Zokirov tomonidan ijro etilgan.
Bolalar uchun chop etilgan «Olchaning
tug'ilgan kuni» nomli ilk kitobim ustoz Quddus
Muhammadiy tomonidan «Agar daraxt
o'tqazish bo'yicha 1000 ta she'r yozilgan
bo'lsa, bu she'r 1001-originali
bo'libdi», deya e'tirof
etilgan.

Aziz o'quvchilar, jondan aziz nabiralarim!
Mustaqillik sharofati bilan bizni 150 dan
ortiq mamlakat tanidi, tan oldi. O'zimizni
yanada chuqurroq anglab yetdik. Bugungi
dorilamon kunlar, tinch va osoyishta
hayotimiz, farovon kunlarimiz osonlik bilan
qo'lga kiritilmagan. Siz o'zingiz tug'ilib
o'sgan, ota-bobolaringiz xoki yotgan yerni
muqaddas biling, uni har bir qarich yerini
ko'z qorachig'ingizdek asrang!

Vatan tuyg'usini dilingizga jo aylab,
ko'zlaringizga to'tiyo qilib, Sizni dunyoga
keltirgan ota-onangiz yuzini hech
qachon yerga qaratmang. Sizga bilim
berayotgan ustozlaringizning ishonchini
oqlashga harakat qiling. Shunday
qilsangiz, yurtimizning yanada gullab-
yashnashi, tinch, osuda hayotimizga
o'z hissangizni qo'shgan bo'lasiz!

Gulchehra KARIMOVA
yozib oldi

KO'KDA QUYOSH KIMYOGAR

Yurtga keldi qaynoq yoz,
Dalalarda ko'k libos.
O'riklar oltin misol,
Undan tomar chak-chak bol.

Oichalar tilla zirak,
Tebranar sarak-sarak.
Yo'l chetida ming terak,
Quvnashib chalar chapak.

Hukm surar to'kin yoz,
Bog'-u rog'lar ko'k libos.
Ko'kda Quyosh kimyogar,
Tinmay to'kar nur-u zar.

Jilo berar yaproqqa,
Mehr qo'yar tuproqqa.
Tog'da muz eritadi,
Suv qilib elitadi.

Daryo to'lib oqsin, deb,
Uyda chiroq yoqsin, deb.
Qulo'ch yozar qaynoq yoz,
Bizga urug' aymoq yoz.

Ma'naviyat ko'zgusi bo'lmish kitob insonni ulug'lik, ezgulik sari yetaklovchi, uning xayolot dunyosining boyishiga muhim hissa qo'shuvchi vositadir.

MA'NAVİYAT KO'ZGUSI



N. SULTONOV o'lgan suratlari

Kuni kecha poytaxtimizning Yashnobod tumanidagi 282-umumta'lim maktabida o'zbek bolalar adabiyotining yirik namoyandaligidan biri – O'zbekiston xalq yozuvchisi Xudoyberdi To'xtaboyev bilan ijodiy uchrashuv bo'lib o'tdi.

Maktab rahbari Sapira To'laganova ta'kidlaganidek bunday tadbirlar bolalar qalbidagi bir umr muhrlanib qoladi. Bolajonlarning ko'zidagi quvonchni ko'rib, odamning dili yayraydi. O'quvchilar sevimli yozuvchilari bilan yuzma-yuz muloqot qilib, o'zlarini qiziqitirgan barcha savollariga javob olishlari ularga olam-olam zavq baxsh etdi.

Tadbir davomida o'quvchilar ijodkorning «Mungli ko'zlar» asaridan sahnalashtirilgan lavha namoyish etishdi.

– Adibning ushbu asarida oilada milliy qadriyatlar qadrlanmas ekan, u tanazzulga yuz tutadi, farzandlar mehrdan bebahra o'sishadi, degan g'oyalar ilgari surilgan. Shu bois ham ushbu asar yosh avlodning tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi, – deydi biz bilan suhbatda ushbu ta'lim muassasasining kutubxona mudirasi Ozoda Ergasheva.

Yozuvchimiz o'quvchilar bilan kitobning inson hayotidagi ahamiyati va roli xususida samimiy suhbat qurdi va ularni qiziqitirgan savollarga javob berdi. Uchrashuv yakunida o'quvchilar sevimli yozuvchilaridan dastxatlar olishga musharraf bo'lishdi.

Jamoliddin MUHAMMAD
o'g'li

SOLI BUVANING ARMONI

Olis
manzilga yo'lga
chiqqaningda, hamrohing yaxshi
bo'lsa borar joyingni uzoqligi
ham sezilmaydi.

Jizzax shahriga otlanganimda, menda ham shunday bo'ldi. Ko'pni ko'rgan, saksonni qoralab qo'ygani qaramay hali ham g'ayrati ichiga sig'maydigan Soli buva bilan bora-borguncha gurunglashib ketdik. Barcha farzandlarini o'qitib, oliy ma'lumotli qilgan otaxon nabiralarning ham a'lo o'qishlarini doimo nazorat qilib borarkan.

– Uch-to'rt yil oldin biroz mazam bo'lmay



Sportdagi kabi hisohdayam ustamiz.

qoldi, – dedi otaxon suhbat davomida biroz afsuslanganday bo'lib. – O'sha yili nabiram Alisher maktabga chiqadigan edi. Uni 5-maktabdagi Tangriqulova degan o'qituvchiga topshirmoqchi edim. Baraka topsin. Ko'pchilik farzandi dastlabki ta'limni uning qo'lida olishini orzu qiladi. Tobim qochganligi tufayli Alisherni u yerga olib borolmadim. Shukurki, hozirgi ustozlari ham talabchan, bilimdon.

Soli buva hikoyasidan so'ng, beixtiyor ko'nglimda o'sha tomonga yo'lim tushsa, albatta, maktabga kirib, ustozni ziyorat qilish niyati tug'ildi. Buni qarangki, o'sha maktabda bo'lish nasib etdi. Janna opa rahbarlik qilayotgan 4- «D» sinf o'quvchilari bilan yaqindan tanishdim.

– Sinfimda 35 nafar o'quvchim bor, – deydi opa mehr bilan. – Ularning barchasi iqtidorli. Shogirdlarim tasviriy san'at, raqs, ingliz tili va boshqa to'garaklarda muntazam shug'ullanib kelishmoqda. Yana bir quvonchli tomoni o'quvchilarim sportni sevishadi va turli yo'nalishlarda ko'plab yutuqlarga erishib

SHOIRNING UY-MUZEYIDA

Xalqimizning sevimli shoiri Muhammad Yusuf hayot bo'lganida bu yil 62 yoshga to'lar edi...

Lekin u o'z ijodi bilan hamisha yonimizda va yodimizdadir.

Shoirni har bir vatandoshimiz yaxshi eslaydi, she'rlarini e'zozlaydi.

Xotira va qadrlash kuni arafasida biz, bir guruh o'quvchilar Marhamat tumaniga borib, shoirning uy-muзейi, ta'lim olgan maktabida bo'ldik. Muhammad Yusuf tug'ilib o'sgan xonadonda tashkil etilgan tadbirda qatnashdik, shoir qabrini ziyorat qildik.

Bir o'lam taassurotlar bilan qaytgach, maktabda shoir she'rlarini ifodalay olish mushoirasini o'tkazmoqdami. Bu bizning sevimli ijodkorimiz xotirasiga bo'lgan cheksiz hurmatimiz nishonasidir.

Nafisaxon TOJIMAHMMATOVA,
Andijon viloyati, Ulug'nor tumanidagi 16-ayrim
fanlar chuqur o'rgatladigan DIMining
8-sinf o'quvchisi

Ustoz shogirdi haqida

Ta'lim maskanimizning 9-«A» sinfida tahsil olayotgan
Laylo Rumxonova haqida gap borsa, ko'pchilik unga

MAKTABIMIZ FAXRI,

deya baho beradi.

Nega, deysizmi? Chunki u ilm dargohining 1-sinfiga qadam qo'ygani kunidan to shu bugunga qadar barcha fanlarni a'lo bahoga o'zlashtirib kelmoqda. Layloning iboli, hayoli, mehnatkash va har tomonlama barchaga ibratli qiz bo'lib ulg'ayishida onasi Shohida opa Atayevaning hissasi katta.

9-«A» sinf rahbari, biologiya fani o'qituvchisi, O'zbekiston Xalq ta'limi a'lochisi Iroda Sobirova shogirdi haqida to'liqlanib, shunday deydi.

– Laylo qizimiz barchaga har tomonlama ibrat bo'lib kelayotgan o'quvchilardan biri. Ko'rik-tanlovlarda ba'zan hamkasblarimiz bilan bu

a'lochi o'quvchimizni, mening fanimdan qatnashsin, deya «talashib» ham qolamiz. «Bilimlar bellashuvi»ning tuman bosqichida kimyo fanidan 2-o'rinni egalladi. «Quvnoq startlar» sport musobaqalarining shahar bosqichida 2-darajali diplom va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

Maktab miqyosida o'tkazilgan «Orasta qizlar» tanlovida 1-o'rin sohibasi bo'lgani fikrimizning dalilidir.

Maktabimizda an'anaviy tarzda o'tkazib kelinayotgan fan oyliklari, «Til – ma'naviyat ko'zgusi», «Ijodiy ishlar tanlovi» singari qator tadbirlar ham uning ishtirokisiz o'tmaydi.

Biz o'qituvchilar qobiliyatli, faol, a'lochi o'quvchimiz bilan faxrlanamiz va o'quvchilarimiz orasida Layloga o'xshaganlar soni yana ko'proq bo'lishi uchun bor kuch-g'ayratimizni ishga solamiz.

Mohin OMAROVA,
poytaxtimizning Yashnobod tumanidagi 153-umumta'lim
maktabining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

kelishmoqda.

Doniyor Qudratov «O'zbek jang san'ati» bilan shug'ullanadi. Turli musobaqalarda 16 ta medalni qo'lga kiritgan. Alpomish To'xtayev gimnastika, Alisher Abdullayev erkin kurash bo'yicha bittadan medalga ega. Ibrohim Xayrullayev shaxmat va boksqa qatnashadi. Shu kungacha musobaqalarda 6 ta medalni qo'lga kiritgan. Ruxshona Kamolova taekvando, gimnastika bo'yicha turli bellashuvlarda 4 ta medalga sazovor bo'lgan.

Ustozning so'zlarini tinglar ekanman, beixtiyor ko'z oldimda Soli buvaning nuroniy chehrasi namoyon bo'ldi.

Rostini aytсам, Jizzax shahridagi 5-umumta'lim maktabida faoliyat ko'rsatayotgan bu fidoyi ustozga mening ham havasim keldi. Soli buvaning aytganicha bor ekan.

Yusuf ABDULLAYEV

LESSON 87

SINGULAR OR PLURAL?

Decide if the sentences need singular or plural nouns. Then complete them with the correct words from the box.

- bottles books taxis tree car
meals clocks television e-mails

How many ... were waiting outside?
Have you got a ... in your bedroom?
I've bought three ... to read next week.
There's a very old ... growing in his garden.
Sojida only eats two small ... a day.
These plastic ... are all empty now.
Ali sends a few ... every day.
Some of the school ... have stopped working.
Can I borrow your ... to go into town, please?



LET'S MAKE TOGETHER
(Keling, birga bajaramiz)

Put these sentences in the right order. Notice that two nouns go together in each sentence.

- someone Did door the ring bell? *Did someone ring the door bell?*
- shoe to I shop the went.
- paid bill He hotel the.
- card never I my use credit.
- China in guide We a tourist used.
- car seen you Have the key?
- street The lorry lamp into the crashed.
- our We in centre shopping town the did.

Prepared by Dinora SHAKIROVA

HOW IS YOUR MOOD?
(Kayfiyatingiz qanday?)

Find suitable couple:

- mock
- cry
- angry
- surprised
- joy
- happy



Shirinoy HAYITOVA,
the pupil of school № 25 in Qarshi district, Qashqadaryo region

TONGUE TWISTERS
(Tez aytishlar)

**Chicks and clocks,
bricks and blocks!**

**Sanjar Saidov is
surrounded by his
sousaphone.**

Kumush TURG'UNOVA

**DOCTOR
AND
PATIENT**

Here is conversation between a dentist and a patient. The dentist's part is in the right order.



Dentist

- Good afternoon, Mr Alimov.
- Just a check-up?
- Any problems since your last visit?
- Let's have a look. Open wide.
- Yes, you'll need a filling.
- Just a small one. Can you make a new appointment?
- See you soon, then.

Patient


- Yes, that's right.
- Ok, I will.
- Thanks. Goodbye.
- Good afternoon.
- Oh no!

- Can you see anything wrong?
- I had toothache yesterday.

Umida G'OFUR qizi.
Painter: SHAHNOZA

PAINT AND TRANSLATE
(Bo'yang va tarjima qiling)

Dear my friends paint with blue only animals, with green the birds, with yellow all colours, with red only numbers and with orange the adjectives.



Dildora MAHMUDOVA,
the pupil of 8th form in school № 244 in Yashnobod district

"SPORTS" WORDSEARCH

12 words are hidden in this wordsearch puzzle. Find and circle them.

F	R	G	Y	M	N	A	S	T	I	C	S	W	F	I	B	A
I	V	U	K	O	S	J	Q	B	Y	I	T	R	X	Z	D	V
B	K	O	A	H	R	O	B	W	S	X	N	E	M	S	A	O
O	W	B	R	A	I	G	O	L	F	W	V	S	E	O	C	L
X	C	K	A	K	D	L	F	D	F	O	O	T	B	A	L	L
I	B	Z	T	A	P	B	M	U	V	H	Y	L	M	V	C	E
N	E	W	E	I	G	H	T	L	I	F	T	I	N	G	M	Y
G	H	L	P	L	Q	R	O	T	X	Z	Y	N	V	F	C	B
H	L	A	R	A	C	D	U	R	U	C	K	G	B	I	S	A
B	O	B	A	D	T	E	N	N	I	S	E	N	Q	E	T	L
L	N	C	B	S	A	K	E	Q	N	Q	T	Y	W	X	C	L
F	N	E	K	C	O	L	N	Z	X	I	H	J	S	Q	O	A
A	R	C	H	E	R	Y	B	P	N	D	N	C	N	B	G	Q
V	G	N	I	F	Y	N	J	I	O	C	M	G	U	Z	Z	Y

Made by: Zohida TURSINOVA,
English teacher of school № 31 in Mirobod district

OLTINLARGA TENG TUPROQ

Mahbuba Abdulazizova poytaxtimizning Mirobod tumanidagi 328-umumta'lim maktabining 8-sinfida o'qiydi. Uning dolzarb mavzuda yozgan she'rlari kishini hayratlantiradi. Bu, albatta, yaxshilik alomati. Yosh bo'lishiga qaramay tengdoshlarini hushyorlikka da'vat etadi. Hushyorlik davr talabi ekanligini his qilgan Mahbuba tengdoshlarini bugungi tinch kunlarimizni qadrlashga undaydi.

*Jaholatga botganlarning holiga boq,
Vatan, vijdon tushunchasi undan yiroq.
Qaytarolmas ortda qolgan aziz vaqtni,
Puch orzu deb yo'qotadi yo'lin mutlaq.*

*Qani endi vaqt ortga qaytganida,
Ta'qdir boshdan o'z hukmini aytganida.
Vatanining fidoyisi bo'larmidi,
Otaxonlar duosini olarmidi.*

*Afsus qilar nadomatda, lek endi kech,
Yoshlik sira ortga boqmas, lek endi kech.
Uning barcha orzulari bo'lar armon,
Najot izlab o'kinch ila boqar har yon.*

*Aziz bilgin oltinlarga teng bu tuproq,
Ezgu yo'l va yaxshilikdan bo'lma yiroq.
Ilm-u urfon yo'llarida yurgin ko'proq,
Hushyorlikni boy bermagin aslo, o'rtoql..*

Mana sizga so'zlarimning isboti. Mahbuba Abdulazizovaning ijodiy ishlari Respublika nashrlarida, jumladan, «Tong yulduzi» gazetasida ham berilgan. Biz Mahbubaning kelajakda yaxshi ijodkor bo'lib, jamiyatning peshqadam farzandiga aylanishiga tilakdoshmiz.

AXTAMQULI



O, SHE'RIYATIM

Sen mening yorug' quyoshim,
Ham do'stim-u, ham sirdoshim.
Jonajonimsan, darddoshim,
O, she'riyatim.

Nomusim, oriyatimsan,
Davlatim, bor bisotimsan.
Sen mening hayotimsan,
O, she'riyatim.

Jaranglar so'zim mardona,
Qalbimdagi bir durdona.
Izlaganimsan yagona,
O, she'riyatim.
Samir JO'RAQULOV,
Buxoro tumanidagi 21-umumta'lim
maktabining 4-«A» sinf o'quvchisi



MUNISGINAM

Biz sizni qanchalar e'zozlasak kam,
Onajon, opichlab, suyuntirsam ham.
Poyingizga zarhal gilamlar to'shab,
Mehrimni doimo sizga yo'llasam.

Ey mening munisim, dilbandim onam,
Suyanchim, ardog'im, mehribonimsiz.
Qalbimning gulzorin sizga atadim,
Baxtinga sog' bo'ling, onajonimsiz.

Siz uchun ko'nglimni yozay har tongda,
Bunchalar nozikdir ilohiy qiyos.
Suratingiz chizay mahorat ila,
Qarshingizda gullar ochilsin qiyg'os.



Nilufar HAYDAROVA,
Surxondaryo viloyati,
Uzun tumanidagi
52-umumta'lim
maktabining
9-sinf o'quvchisi

BOSHIMIZDA QUYOSH SOCHGAY NUR

Ostonasi gul o'pgan Vatan,
Quyosh quchib so'z aytgan Vatan.
Dunyolarga yuz tutgan Vatan,
Senga fido bo'lsin jon-u tan.

Ko'm-ko'k osmon, eling xurramdir,
Boshimizda quyosh sochgay nur.
To'rt faslingki dillarda surur,
Tinchlik mangu, yashnagay Vatan.

Farangiz SHERBO'TAYEVA,
Toshkent shahar, Uchtepa
tumanidagi 296-umumta'lim
maktabining 7-sinf o'quvchisi

TA'RIFINGGA TOPOLMAYMAN SO'Z

Sen haqingda boshlasam so'zni,
Yuragimda olov yonadi.
Qanchalar ko'p ta'riflay seni,
Vatan, desam ko'nglim to'ladi!

Ta'rifingga topolmayman so'z,
Tog'-u toshlar oldi dilimni.
Sendan aslo yiroq ketmayman,
Yorug' qilding o'zing yo'limni.

Sabina SAFARBOYEVA,
Navoiy viloyati, Navoiy
shahar 11-DIUMning 8-«A» sinf
o'quvchisi



ONAJONIMGA

Yaratgandan yolg'iz o'tinchim,
Sog'lik tilay sizga har mahal.
G'amgin bo'lmang, yo'qolar tinchim,
Onajonim, bo'lmangiz kasal.

Sizsiz yurak urami, aytimg,
Sog'inch qiyar yiroq bo'lsam sal.
Vujudimda jaranglar bir so'z:
Mehribonim, bo'lmangiz kasal.

Samo-yu zamindan charaqlar,
Sharaffi yog'dusiz siz azal.
Qalbimdan toshadi tilaklar:
Volidam, hech bo'lmangiz kasal.

So'g'diyona RASHIDOVA,
Qashqadaryo viloyati,
Shahrisabz akademik litseyi
o'quvchisi

«ONAJONIM TABIAT»

insholar va rasmlar tanloviga

HAR GIYOHING MUQADDAS, VATAN!

Vatan, senda tug'ildim, o'sdim. Musaf-fo havodan nafas olib, zilol suvlarindan chanqog'imni qondirib, tinch, osuda osmoningga boqib, shukronalar keltiraman.

Sening qo'yingdagi har bir giyoh biz uchun muqaddasdir. Hozirda ona yurtimiz tabiatidan-da ko'rkam, go'zal tabiat hech qaysi davlatda topilmaydi, nazarimda. Lekin ko'plab kimyoviy chiqindilarning suvga oqizilishi, havoga chiqarilishi go'zal tabiatimizning musaffoligiga, sofligiga, albatta, ziyon keltiradi. Shuning uchun ham

yurtimizda bioxilma-xillikni asrab qolish uchun turli daraxtlar o'tqazishimiz lozim.

Men maktabimiz qoshida tashkil etilgan «Yosh tabiatshunoslar» to'garagi a'zosiman. To'garagimiz faqat birgina soha bo'yicha emas, balki o'quvchilarda bilim va ko'nikmalarni hosil qilishda, atrof-muhitni tozaligiga e'tiborni kuchaytirishni ham o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. To'garak rahbari Gulbahor Begimova bizga ona tabiatni asrash, uni borligicha kelgusi avlodga yetkazish haqida ko'p gapiradilar. Zero, tabiat qo'ynidagi har bir giyohni ko'z qorachig'imizdek asrash biz yoshlarning har kungi maqsadimizga aylansin.

Sabina HABIBULLAYEVA,
Qashqadaryo viloyati,
Kitob tumanidagi 4-umumta'lim
maktabining 8-«B» sinf o'quvchisi.
YOQUBBEK chizgan rasmlar

Biz tomorqamizga pomidor, loviya, no'xat, rediska, kartoshka, sabzi, bulg'or qalampiri, baqlajon, oshqovoq, makkajo'xori kabi poliz ekinlarini ekkim. Bu mahsulotlar inson organizmi uchun foydali hisoblanadi.

Misol uchun pomidorni olsak, uning tarkibida S vitamini mavjud bo'lib, bizni har xil kasalliklardan saqlaydi, himoya qiladi. S vitamini moddalar almashinuvida juda muhimdir. Aslida tabiat in'om etgan barcha ne'matlar foydalidir. Shunday ekan, biz uchun aziz bo'lgan ona tabiatni asrab-avaylaylik!

Zuhra MAMATOVA,
Sirdaryo viloyati, Boyovut tumanidagi
34-umumta'lim maktabining 8-«B» sinf o'quvchisi

«LOKO-JUNIOR»

bo'lajak futbol yulduzlarini o'z bag'riga chorlaydi



Sevara opa oynayi jahon orqali «Lokomotiv» klubi qoshida jajji bolajonlar uchun futbol maktabi ochilayotgani haqidagi xabarni eshitib, farzandlari Asilbek va Asadbekni ana shu dargohga olib borishni ko'ngliga tugdi. Futbolning ashaddiy muxlisi bo'lgan

Avaz aka ham ayolining bu taklifiga darrovagina rozi bo'la qoldi.

Sevara opa bolajonlari bilan belgilangan manzilga yetib borganida atrof tumonat odam, yig'ilganlarning bari farzandlarini sinov imtihoniga olib kelishgan edi. Quvonarlisi, ko'pchilik bolajonlar qatori murabbiylarga aka-uka Asilbek va Asadbekning ham harakatlari manzur bo'lib, ularni maktabga qabul qilishdi...

2016-yil mamlakatimizda «Sog'lom ona va bola yili» deb e'lon qilinishi Toshkentning «Lokomotiv» futbol klubi tomonidan xursandchilik bilan qarshi olindi. Klub miqyosida tegishli dasturlar rejasini tasdiqlanib, belgilangan ishlar boshlab yuborildi. Birinchi galda Markaziy Osiyoda yagona bo'lgan 3-6 yoshli bolalar uchun «Loko-Junior» maktabini ochish uchun tanlov e'lon qilindi.

— Maktabimiz shu yilning 7-mayidan o'z faoliyatini boshladi, — deydi «Lokomotiv» futbol klubi matbuot kotibi Ma'murjon Mamadaliyev. — Hozirda 60 nafar bolajonlarga malakali murabbiylar Gollandiya futbol maktablari dasturlari asosida mashg'ulotlar olib bormoqda. — O'ylaymizki, kelajakda maktabimizdan nafaqat «Lokomotiv» klubi, balki O'zbekiston milliy terma jamoasi sharafiga xalqaro maydonlarda munosib himoya qila oladigan ko'plab iqtidor egalari yetishib chiqadi. Hozircha bolalar haftaning shanba va yakshanba kunlari mashg'ulotlarda qatnashmoqda.

YUTUQLAR SALMOG'I OSHMOQDA...

Buxoro viloyati, G'ijduvon tuman bolalar va o'smirlar sport maktabida bugungi kunda olimpiada, milliy va boshqa sport turlariga kirgan jami 19 ta bo'ynalish bo'yicha mashg'ulotlar olib boriladi.

O'tgan yili sportchilar dzyudo, erkin kurash bo'yicha mamlakat chempionatlarida yuqori natijalarga erishgan bo'lsa, karate bo'yicha markaziy Osiyo chempionatida ham maskan tarbiyalanuvchisi Bekzod Tuyg'unov yetakchi o'rinni egalladi.

Joriy yilda Chirchiq shahrida bo'lib o'tgan 2000–2002-yillarda tug'ilgan o'smirlar o'rtasidagi

karate bo'yicha O'zbekiston chempionatida 21-umumta'lim maktabi o'quvchisi Jonibek Savriyev 2-o'rinni egalladi. 1–3-aprel kunlari Namangan shahrida 2001–2002-yillarda tug'ilgan o'smirlar o'rtasidagi belbog'li kurash bo'yicha mamlakat chempionatida 32-umumta'lim maktabi o'quvchilari Dilshod O'roqov va Abdulaziz Qodirov yuqori natija qayd etishdi.

O'quvchi-yoshlarning jismonan sog'lom bo'lib voyaga yetishida xizmat qiluvchi bu maskandan hali ko'plab chempionlar bo'y ko'rsatishi aniq.

Ulug'bek SAIDOV



FUTBOLCHILARIMIZNING SHASHTI BALAND



M i n s k shahrida o'zining navbatdagi o'quv-mashg'ulot yig'inini o'tkazayotgan futbol bo'yicha O'zbekiston (U-19) yoshlar terma jamoasi beloruslik yosh futbolchilarga qarshi 2 ta sinov-nazorat o'yinida maydonga tushdi.

Dastlabki bahsda yosh charm to'p ustalarimiz raqiblariga hech qanday imkoniyat qoldirmay, yakunda 0:3 hisobidagi g'alabani tantana qildilar. Ikkinchi qarama-qarshilikda Jasur Abduraimov jamoasi yevropalik teng-qurlarini 2:1 hisobida mag'lubiyatga uchratishdi. Ushbu o'yinlarda Sanjar Qodirqulov, Jasur Yaxshiboyev kabi yosh futbolchilarimizning harakatlari barchaga birdek manzur bo'ldi.

Shu kunlarda futbol bo'yicha O'zbekiston (U-16) o'smirlar terma jamoasi Osiyo chempionatiga puxta hozirlik ko'rmoqda. Kuni kecha vakillarimiz BAAning Dubay shahrida mahalliy yurt terma jamoasiga qarshi 2 ta o'rtoqlik o'yinida maydonga tushdi. Ilk uchrashuvda futbolchilarimiz raqiblarini 1:0 hisobida mag'lub etgan bo'lsa, ikkinchi bahs 1:1 hisobidagi durang natija bilan yakunlandi. Futbolchilarimizga navbatdagi musobaqalarda omad va zafarlar tilaymiz.

Sa'dullo TURSINOV

USTOZLAR BELLASHUVI

Yurtimizda sportga qaratilayotgan e'tibor tufayli turli yoshdagi hamyurtlarimiz o'rtasida musobaqa o'tkazish yaxshi an'anaga aylangan.



«Sog'lom ona va bola yili» munosabati bilan Jizzax viloyatining Arnasoy tumanida «Sog'lom turmush — farovon hayot garovi» shiori ostida velomarafon bo'lib o'tdi. Unda tuman umumta'lim maktablarining 40 nafar xodimlari o'zaro kuch sinashishdi.

Qiziqarli va murorasiz o'tgan musobaqa yakuniga ko'ra, erkaklar o'rtasida Odil Mamarahimov 1-o'rin, Mirkomil Asrorov 2-o'rin, Botir Qurolov, Dilmurod Salimov 3-o'rinni egallashdi. Shuningdek, ayollar bahsida Munira Qo'chqorova 1-, Ra'no Yo'ldosheva 2-, Nargiza Shakarova 3-o'rinni qo'lga kiritdi. Musobaqa davomida Sojida Razzoqova va Botir Abdunaimov «Yoshi ulug' poygachi» nominatsiyasi bilan taqdirlandi.

Muhammadsodiq ALIMOV

DANG'ARALIK CHEMPIONLAR — respublikamizdagi xohlagan oliy o'quv yurtining jismoniy tarbiya yo'nalishiga imtihonsiz qabul qilinadi.

Farg'ona viloyati, Dang'ara tumanidagi bolalar va o'smirlar sport maktabida qo'shaloq bayram. Sababi, maskan tarbiyalanuvchilaridan Erkin Usmonov va Asror Abdusalomov endilikda o'zlar xohlagan oliy o'quv yurtining jismoniy tarbiya yo'nalishiga imtihonsiz qabul qilinadi. Erkin tumandagi 1-iqtidorli bolalar umumta'lim maktabida ta'lim olgan. Hozirda tuman kollejlardan birining bitiruvchisi bo'lgan o'quvchi olti yildan buyon sport maktabining yengil atletika turida nayza uloqtirish bo'yicha shug'ullanib keladi. Shu vaqtga qadar qator viloyat, respublika birinchiliklarida 1-o'rinni egallagan. Joriy yilning 26–29-aprel kunlari Andijonda bo'lib o'tgan 1997–1998-yillarda tug'ilgan o'smirlar o'rtasidagi mamlakat chempionatida 1-o'rinni zabt etdi.

Tezlikda va uzoqqa yugurishda Asrorga teng keladigani yo'q. 10-umumta'lim maktabida o'qigan sportchi 7-sinfaligidayoq yengil atletika mashg'ulotlariga qatnay boshladi. Do'sti Erkin singari u ham qator bahslarda marraga birinchi bo'lib yetib kelgan chempionlardan. Murabbiy Omonjon Abdullayevning tinimsiz mehnatlari bois, Asror Abdusalomov 800 metrlik masofaga hammadan ilgari yetib keldi.

Erkin Usmonov birinchi toifali murabbiy Azizbek Normatov qo'l ostida 2–6-iyun kunlari Vyetnamda bo'ladigan xalqaro musobaqaga tayyorgarlik ko'rmoqda. Uning yurtimiz sharafiga munosib himoya qilishiga ishonamiz.

Nozima QUDRAT qizi

Har yili
18-may
Xalqaro muzeylar kuni
sifatida nishonlanadi. Yer
yuzida turli xil muzeylar bo'lib,
ular insonlarga tarixiy manbalar
hamda eksponatlarni o'z ko'zlari
bilan ko'rish imkoniyatini
yaratadi. Muzeylar kuni
arafasida sizlarni dunyodagi
eng ko'zga ko'ringan ana
shunday maskanlar bilan
tanishtirishni maqsad
qildik.

18-may – Xalqaro muzeylar kuni

MOZIYDAN SO'ZLOVCHI MASKANLAR

VATIKAN (Rim)

Vatikan muzeyi dunyodagi eng katta va ko'rkam muzey bo'lib, u 1400 ta zal, 50000 ta obyektidan tashkil topgan. Bo'limlarga ajratilgan muzeyni to'raligicha aylanib chiqish uchun 7 chaqirim masofani bosib o'tishingizga to'g'ri keladi.



QATAG'ON QURBONLARI XOTIRASI MUZEYI (O'zbekiston)



Mustaqillik yillarida barpo etilgan ushbu muzey yaqin o'tmishda o'tgan ma'rifatparvar insonlarning aziz xotirasiga bag'ishlab qurilgan. Muzeidan o'z millati va xalqi ozodligi, farovonligi yo'lida jaholatga qarshi kurashgan bobokalonlarimiz hayotiga oid lavhalar, maktublar va buyumlar joy olgan. Istiqloq tufayli muborak nomlari oqlangan bobolarimizdan Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat, «paxta ishi»da begunoh bo'salar-da, oilalari bilan sovuq o'kalarga surgun qilingan vatandoshlarimizning taqdiri bilan, surgun chog'ida yashagan joylarining kichik maketlari hamda o'sha davrda «Qora qarg'a» deb nomlangan mash'um mashina eksponati bilan tanishishingiz mumkin.

BUYUK BRITANIYA (London)

Britaniya muzeyi 1753-yilning 7-iyunida tashkil etilgan. Uzoq yillar yig'ilgan eksponatlarning aksariyati qimmatbaho buyumlardan tashkil topgan.



REYKSMUZEUM (Gollandiya)

Reyksmuzeum Gollandiya davlatining eng asosiy muzeylaridan biri sanaladi. Muzei 1885-yilda barpo etilgan eng qadimiy va hashamatli saroyda tashkil etilgan. Asosiy eksponatlari qatorida XV – XVII asrlarda ijod qilgan taniqli golland rassomlarining ijod namunalari joy olgan.

Muzeyni bir kunda aylanib chiqishning iloji yo'q. Chunki u 200 ta zaldan iborat.



Bugungi kunda yurtimizda 1200 dan ortiq jamoatchilik va 90 dan ortiq davlat muzeylari faoliyat ko'rsatmoqda. Ularda ajdodlarimiz tarixi, betakror madaniyatini aks ettiruvchi 1,3 milliondan ortiq nodir buyumlar saqlanadi.

Ozoda TURSUNBOYEVA
tayyorladi

SONLAR TILGA KIRGANDA...

«Bir»ni torting
burnidan,
Sakrab turar
o'rnidan.

«Ikki»ning oyog'i bor,
Chopishga doim
tayyor.

«Uch»ni demang
baqaloq,
Yeb qolasiz
shapaloq.

«To'rt» stuldir
teskari,
Kulib turar sen sari.

«Besh» qarmoqning
ilgagi,
Baliqchining
tirgagi.

«olti»ning qorni
katta,
Tarvuz yegan,
albatta.

«Yetti»da bor
soyabon,
Belbog'li zo'r
pahlavon.

«Sakkiz» ikki
dumaloq,
Kichkinasi yumaloq.


«To'qqiz»ning
boshi katta,
Oyog'i bor, albatta.

«O'n»ga qolaman
hayron,
Bir hamda nol
yonma-yon.

Bahrom AKBAROV.
YOQUBBEK chizgan rasmlar

BO'SH O'TIRMA, BOSH QOTIR!

«O'SIMLIK» BOSHQOTIRMASI



- Chigitdan unuvchi o'simlik.
- Tog'da o'suvchi dorivor buta.
- Erta gullovchi daraxt.
- «Hammaga kerak» daraxt.
- Poliz ekini.
- Qora mevali yovvoyi o'simlik.
- Dorivor o'tsimon o'simlik.
- Qovun – ...
- Mevali daraxt.
- Gullamay hosil tugadigan daraxt.

Tuzuvchi:
Firdavs QO'SHNAZAROV,
Jizzax viloyati, Zomin
tumanidagi 36-umumta'lim
maktabining 6-«B» sinf
o'quvchisi

MATEMATIKA FANIDAN TEST

1. Surati maxrajidan katta kasr qanday nomlanadi?

- to'g'ri kasr;
- aralash kasr;
- o'nli kasr;
- noto'g'ri kasr.

2. Noto'g'ri kasr qiymati haqida nima deyish mumkin?

- 1 dan katta;
- 1 dan kichik;
- 1 ga teng;
- 0 ga teng.

3. Bir xil maxrajli ikki kasrdan qaysinisining surati kichik bo'lsa, o'sha kasr ... bo'ladi?

- kichik;
- katta;
- to'g'ri kasr;
- noto'g'ri kasr.

X. HASANOVA tayyorladi

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati
Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumati
qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya fondi.

Bosh muharrir Feruza ADILOVA

Gazeta O'zbekiston Matbuot
va axborot agentligida
0208-raqam bilan 2007-yil
2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Omonulla YUNUSOV,
Dilshod KENJAYEV,
Bahodir G'ANIYEV,
Svetlana INOMOVA,
Murtazo SULTONOV,
Zoir ISAJONOV,
Vahobjon RAJAPOV,
Zikrilla TESHABOYEV,
Feruza JALILOVA,
Feruza MATYOQUBOV
(mas'ul kotib)

Navbatchi
muharrir
Jamoliddin
ABDULLAYEV
Rassom
Feruzbek
KAMOL o'g'li
Sahifalovchi-
dizayner
Shaxobiddin
MAXMADIYEV

«O'zbekiston» NMIU
bosmaxonasida chop etildi.
Manzilibiz va bosmaxona
manzili:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100011.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz

Tahririyatga kelgan barcha
qo'lyozmalar tahrir qilinadi,
mualliflarga qaytarilmaydi.
Gazeta haftaning dushanba
kuni chiqadi.
Shakli A-3, 2 bosma taboq.
Bahosi kelishilgan narxda
ISSN 2010-6092
Tel/faks: 244-63-08
Tel/faks: (99871) 244-38-10
Adadi – 49502
Buyurtma – S 5948